

Buxoro tuman Axborot kutubxona markazi

Axborot bibliografiya xizmati

“Qadriyatlaring boqiy bo’lsin Navro’z!”

21 mart Navro’z bayramiga

Bibliografik qo’llanma



*Tilga kirayotir har bog'da og'och,
Binafsha atridan yo'qotdim o'zim.
Boshimni silab qo'y, do'stim qaldirg'och,
Qaytganing ishqilib chinmi,
Navro'zim!*

Navro'z bayramining qachon vujudga kelgani haqida bizgacha yetib kelgan qadimiy manbalardan shu narsa ko'rinadiki, u O'rta Osiyo, Eron va Afg'onistonda Ahamoniylar davrida (miloddan avvalgi VI asrlarda) keng tarqalgan. Su ma'noda Navro'zning tarixini 25-30 asrga ega deb taxmin qilish mumkin.



Navro'z qachon, qanday vujudga kelganidan qat'iy nazar, u har tomonlama ilmiy asoslanib, koinot va tabiat qonuniyatlari hisobga olingan holda joriy etilgan. Chunonchi, quyoshning hamal burjiga kirishi, kunduzning uzaya boshlashi, yorug'likning kuchayishi, tabiatning jonlanishi – Navro'z deb qabul olingan (Navro'z – «yangi kun» degan ma'noni bildiradi). Navro'z eski quyosh kalendari hisobida farvordin oyining boshlanishiga (hozirgi 22 martga) to'g'ri kelgan. Bu kun «kichik Navro'z» deb atalgan va bu kundan boshlab tabiatdagi hamma narsa amalga kiradi, deb hisoblangan.

Beruniy «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli kitobida qimmatli ma'lumotlar berib, unda kichik bayram farvordin oyining oltinchi kunigacha davom etganini ta'kidlagan. Demak, farvordin oyining oltinchi kuni «Katta Navro'z»ning mohiyatini bevosita tabiat bilan bog'laydi va bu haqda shunday yozadi: «...U butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya'ni bahor yomg'irining birinchi tomchisi tushishidan gullar ochilguncha, daraxtlar gullashidan mevalari yetilguncha, hayvonlarda nasl vujudga kelguncha davom etadigan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro'z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan».

Bu fikrlar Navro'zning qadimdan tabiat va bahor bayrami bo'lganini yana bir karra isbotlaydi. Biroq, tarixda Navro'zning mazmunini turlicha talqin qilib, ba'zilar uni taraqqiy ettirishga, boshqalar esa uni ta'qiqlashga harakat qilishdi. Jumladan, grek - makedon va arab istilosi davrlarida Navro'z ta'qiqlanib, u podsho saroylarida, amaldorlar va din ahli davralarida rasmiy bayram hisoblanmagan.

Shuni
kerakki,
bir sinfiy



alohida ta'kidlab o'tish
Navro'z o'tmishdagi har
jamiyatda podsholar
hukmdorligi, diniy
ta'sirida shaklan o'zgarib

ideologiya
tursada, u

o'zining asosiy mohiyatini saqlab qoldi. U haqiqiy xalq bayrami bo'lib, mehnat ahli orasida katta tantanalar bilan nishonlangan.

Binobarin, qadimdan xalqda bayramni o'tkazishning o'ziga xos tartib - qoidalari bo'lgan. Islomgacha bo'lgan Navro'zda oddiy xalqqa tegishli bo'lgan odatlar ham diqqatga sazovordir. Bayram kuni odamlar bir - biriga shakar va shirinliklar hadya qilish (hayotingiz shirin bo'lsin degan ma'noda), bir - biriga suv sepish (bu yil suv ko'p bo'lsin, hosil yaxshi bo'lsin degan ma'noda) va boshqa odatlar keng tarqalgan. Keyingi asrlarda esa hovli - joylarni tozalash, ko'kat va gullar ekish, ota-ona, yoru do'stlarni ziyorat qilish, marhumlarning qabrini ziyorat qilish kabi odatlar Navro'z bayramining tarkibiy qismiga aylangan.

*Qorlar erib, daryo suvga to'liq bo'lsin,
Don-dun ekib, xirmonlari bo'liq bo'lsin.
Qo'y ko'payib, dashtda cho'pon-cho'liq bo'lsin,
Kel, bahorim, o'shal kunni sog'inganman.
Qachonlardir urushganlar apoq - chapoq,
Yovlashganlar bu kun hatto uymas qovoq.
Yetim - yesir, nochorlardan xabardor goh,
Xalqim, azal oqibating sog'inganman.*



Ma'lumki, o'rta asrlarda O'zbekiston hududining turli joylarida Navro'z o'ziga xos usullarda uyushtirilgan. Uni nishonlash vaqti uch kundan tortib to 15 kungacha cho'zilgan. Masalan, Xorazmda Navro'zdan oldin joylarda maxsus yig'in bo'lib, unda bayram raisi tayinlangan, tantanalar, tomoshalar, sayillar o'tkazish tartiblari haqida so'z borgan. Navro'z odatda bozor qoshidagi joylarda, katta maydonlarda, shahar chekkalaridagi sayilgohlarda uyushtirilgan. Odatda, bayramning birinchi kuni quyidagicha bo'lgan: ertalab bayram boshlangandan keyin, kun o'rtasida musiqachilar, qo'shiqchilar va boshqa

san'atkorlarning ijrolari, kechki payt esa sayillar, xalq o'yinlari, bazmlar uyushtirilgan.

Navro'zning tomosha va musobaqalari kun sayin avjga chiqa boshlagan. Har xil musobaqalar: kurash, ko'pkari (uloq), poyga bayramning ko'rki bo'lgan.

Navro'zning juda katta, buyuk tarbiyaviy xususiyatlari, odamiylik, insonparvarlik, umumbashariy sifatlarini ham ta'kidlamog lozim. Navro'z kunlari butun xalq xushchaqchaqlik bilan hordiq chiqargan. Bu bayram nafaqat xursandchilik, kulgu, xushchaqchaqlik bilan chegaralanadi, ayni paytda bayram oldi va undan keyingi kunlarda kishilar o'z yumush va tadbirlarini ham rejalashtirib olganlar, unga umid bog'laganlar. Qachon yer haydab, chigit qadash, sug'orish haqida kelishib kengashlar o'tkazilgan.

Navro'z – xalqimizning yaratuvchanlik mehnati bilan bog'liq, uning orzu-umidlarini kuylagan, turmush tarzi, ma'naviyati milliy ruhini xalq ijodi, usuli va uslublari yordamida tarannum etgan, xalqimizning boy milliy san'atini, urf-odatlarini o'zida saqlagan bayramdir. U yoshlarni odamiylik, do'stlik, o'zgalarga hamdard bo'lish, mehribonlik, mehr - oqibatli bo'lishga undaydi.

Navro'z baynalmilal bayramdir. Bu bayramni biz bilan bir qatorda Eron, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston xalqlari ham nishonlaydilar.

Hozirgi kunda O'zbekiston mustaqil davlat sifatida jahonga yuz tutayotgan bir paytda diyorimiz qo'shni mamlakatlar bilan madaniy - ma'naviy aloqalarni mustahkamlab bormoqda. Bu bayram ham ezgulik, adolat, insonga hurmat tuyg'ularini mustahkamlashga, xalqlar o'rtasida birodarlik va birdamlikni, mehr - oqibatni yanada kuchaytirishga da'vat qiladi.

Bu yashil olamga o'zing ber to'zim,

Shaftoli guliday yorishar yuzim.

Oq bodom gulini o'pganing rostmi,

Kelganliging chinmi, qadim Navro'zim?!Navro'z kunlari katta bozorlar (savdo-sotiqalar) tashkil etilgan va eng shirin taomlar

tayyorlangan. Odatdagi (palov, sho'rva, kabob kabi) ovqatlardan tashqari do'lma, yalpiz, ko'k piyoz va boshqa ko'katlar solingan maxsus taomlar pishirilgan. Navro'z taomlari orasida sumalak alohida o'rin tutgan. Chunki sumalakni alohida tayyorlashning o'zi maxsus marosim sifatida shakllanib, Navro'z bayramining muhim qismlaridan biriga aylanib ketgan.

«Sumalak sayli» (yoki «Sumalak bazmi») Navro'zning «shohona taomi» — sumalak tayyorlash, sumalakxo'rlikka bag'ishlangan marosimdir.



Olimlarimiz keltirgan manbalarga ko'ra, «Sumalak» so'zining ma'nosi, bu g'aroyib taomni tayyorlash udumi o'ziga xos tarixiy bo'lib, bu haqida ulug' olim Mahmud Qoshg'ariy «Devoni lug'otit-turk», ya'ni «Turkiy so'zlar devoni» kitobida sumalak xususida shunday izoh beradi:

«Summa» ivitilgan bug'doy nomi. Uni quritib tuyiladi. So'ng undan ugra oshi va non qilinadi. Sharbat uchun qilingan undirilgan arpa uchun ham bu qo'llaniladi».

Demak, «sumalak» ivitilgan bug'doy yoki arpa ma'nosini anglatuvchi qadimgi turkiy kalom – «suma»dan kelib chiqqan. Sumalak pishirish udumi esa O'rta Osiyoda yashagan qadimgi turkiy qavmlar orasida azaldan keng rasm bo'lgan.

Umar Xayyom o'zining shoh asari «Navro'znoma»da sumalak haqida mana bunday izoh beradi: «Sumalak bahorning ulug' va tansiq taomidir. Menga rivoyat aylamishlarkim, Hisravning otasi Xormuzd arpa o'sib yotgan ekinzor oldidan o'tib ketayotgan ekan. Arpaga qo'yilgan suv ekinzordan toshib, yo'lga oqar ekan.

Farvardan oyi ekan. Xormuzd, «Arpa omonlik doni, uning ko'kati yaxshi ko'kat» deb ichmoq uchun suvdan bir ko'za to'ldirib olishga farmon qildi. Arpa orqali o'tgan yoki undan chiqqan suv charchoqni tarqatib, me'da kasalliklarini davolaydi. Bu suvni kim ichsa, u yangi yil arpa pishig'igacha kasalliklardan muhofaza qilingan bo'ladi. Eronliklar, turonliklar ham arpa ekishning uddasidan chiqadilar. Arpa sumalak pishirilgan ilk ko'katdir.

Abu Muslum junbushidan keyin turonliklar Navro'zni qayta o'z shodiyonalariga aylantirdilar. Shayxlarning e'tiroziga Muhammad alayhissalom «Arpa uni tansiq taomdir, tanangizda quvvat kamaygan chog'da uni ko'proq tanavvul qilinglar», degan hadisi bilan javob beradi. Boisi, arpa uni yoki ko'katlardan tayyorlangan taomlar allomalar va so'fiylarning eng xush ko'rgan taomidir».

Sumalakni asosan ayollar tayyorlab, ular ish jarayonida suhbatda bo'lishgan, hikoya, ertak va rivoyatlar aytishgan. Vaqti kelganda o'yin-kulgu qilishgan. Sumalak tayyor bo'lgach, uni pishirishda qatnashganlar va mahalla ahli sumalakxo'rlik qilish uchun «sumalak sayli»ga taklif etilganlar, sumalak sayli ishtirokchilari childirma (doira) chalib, raqsga tushib, xursandchilik qilishgan. Sayil hazil-mutoyiba, o'yin-kulgu bilan o'tgan. Asrlar osha nishonlanib kelinayotgan «sumalak sayli» hozirgi kunda ham kishilarni o'zaro hamkorlik va birdamlikka chorlaydi.



***Momolarim pishirsalar gar sumalak,
O'yin-kulgu shodliklardan to'lsa falak.
To tonggacha o'tin tashib jonim halak
Bo'lsa-bo'lsin, sumalakni sog'inganman.
Sumalagim tarixi zo'r, bu «si-malak»,
Kovlar ekan g'aybdan kelgan o'ttiz malak.
Niyatlaring ijob bo'lar aytsang tilak –
Momom aytgan pok tilakni sog'inganman!***

Navro'z – bu yangi qishloq xo'jalik mehnat mavsumining boshlanishiga bag'ishlangan bayram, shu sababli ko'p joylarda u dala ishlari boshlangunga qadar davom etgan.

«Navro'z»ning so'nggi kunida dehqonlarning dalaga qo'sh chiqarish va yerga urug' qadash marosimi o'tkazilgan. Bu marosim har joyda turlicha: «ekish sayli», «Qo'sh oshi», «Qo'sh chiqarish» («Qo'sh – moy») deb nomlangan, Mazkur an'anadan ijobiy foydalanish natijasida hozirgi davrda respublikamizning ko'p joylarida paxtakorlarning mehnat mavsumini boshlaydigan – «Chigit qadash» kabi marosimning yangi zamonaviy shakli vujudga kelgan.


*Oftob emib, musht ko'tarib chigit unsa,
Tolyog'ochda yurgan bolam yigit bo'lsa.
Iyd Navro'z yangi kunda baxti kulsa,
Yangi yilim, yangi izing sog'inganman.*



*Qo'li yetmas Oybarchinning baldog'iga.
Jonim sadqa bobom qo'lin qadog'iga,
Dehqonimga yaxshi kunni sog'inganman.*



Dehqon bobo ishin etmas adog'iga,



«Bahoroy» hamma yerda Navro'zning ramziy obrazlarini gavdalantiruvchi bayramning asosiy qahramoni hisoblanadi. Odatda Navro'z Bahoroyning o'z dugonalari bilan aholi yashaydigan ko'chalarni karnay-surnay sadolari jo'rligida aylanishi bilan boshlanadi. Bahoroy qishloq yoki mahallalarning markaziy maydonlarida to'xtab, aholini o'lkaga bahor kirib kelgani bilan tabriklaydi. Shuningdek, joylarda o'yin-kulgular uyushtiriladi, hammani Navro'z bayrami tantanalariga taklif qiladi.

Bahoroy bayram qatnashchilariga shodlik, do'stlik va obodonchilikka oid uchta shart aytadi. So'zining nihoyasida turarjoylar yashil, obod, go'zal va ko'rkam bo'lishi uchun har bir kishini bittadan daraxt ko'chati ekishga chorlaydi va o'zi birinchilar qatorida belgilangan joyga niholni ekadi. So'ngra, boshqalar ham navbati bilan turli daraxt ko'chati o'tqazadilar. Bazm uyushtiriladi. Buning uchun sahna bayramga mos qilib bezatiladi va uning tevaragiga stol-stullar qo'yiladi.



Bayramning teatrlashtirilgan dasturidan bahorga bag'ishlangan o'yinlar, mehnatkashlarni ruhlantiruvchi turli mushoiralar, quvnoq qo'shiqlar va raqslar, dramatik asarlardan lavhalar, askiya va intermediyalar o'rin oladi. Ha, Navro'z har yili yurtimizga rizq-ro'z, tinchlik, omonlik, baxtu iqbol, qut-baraka olib kelmoqda. Navro'z o'zining ana shu ezgu xislatlari bilan barcha yoshlarni har tomonlama

barkamol, ma'naviy yetuk, vatanparvar, mehnatsevar qilib tarbiyalashda ulkan omil hisoblanadi. Chunki ajdodlarimiz merosi bo'lgan Navro'z endilikda yildan-yilga yanada takomillashib bormoqda. Uning tarbiyaviy kuch-qudrati yanada kengaymoqda. Demak, Navro'z barkamol, komil insonni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy axloqiy negizlaridan biri – umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirishdir. Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga kirib boradi va

singadi. Tabiatga yaqinlik, jonajon o'lkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi, Ma'naviyat o'z xalqining tarixi, uning madaniyati va qadriyatlarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.

Darhaqiqat, Navro'z – o'zbek va sharq xalqlarining ma'naviy qadriyatlar bayrami – meros bo'lib, u o'quvchi yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, bunyodkorlik, do'stlik, mehr-oqibat, ezgulik, adolat, tinchlik ruhida tarbiyalashdagi boylik va buyuk xazinamizdir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida chuqur o'zgarishlar yuz bera boshladi. Avvalo bu aholining tarixan uzoq – milliy turmush va tafakkur tarzi, xalq an'analari, urf-odatlar, ma'naviyatidan kelib chiqayotganligida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Haqiqiy o'zbekona urf-odatlarimizning hayotdan o'rin olayotgani, qadriyatlarimizning o'z mavqeini topayotgani ham shundan.

Kattalarga hurmat, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalar kulfatiga hamdardlik, o'zaro yordam tuyg'usi mamlakatimiz fuqarolariga xosdir. Ma'naviyatimizni shakllantirishda bu fazilatlarni yosh avlod ongiga, ularning tarbiyasiga tobora singdirib borish bugungi kunning eng muhim vazifasidir.

O'rta Osiyo, umuman Sharq xalqlari mutafakkirlarining ilmiy va badiiy ijodida

Navro'zga katta e'tibor berilgan. Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro'z» dostonida, Umar Xayyomning «Navro'znoma» asarida Navro'z bu – olamning xurramlikka yuz tutishi, chamanlar chiroyi jannatdan nishon berishini tasvir etadi. «Oshiqlar tumori» asarida Navro'z bayramining latofati kuylanadi.



1990 yildan boshlab respublikamizda Navro'z bayrami dam olish kuni deb e'lon qilindi.

U yurtimizda yashovchi barcha millat, elatlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik va hamjihatlikni mustahkamlovchi bayram sifatida nishonlanadi.

Bu tadbirlar barchasi Navro'z bayramining barcha ta'lim-tarbiya maskanlarida, oila davrasida, mahalla, viloyat va respublika miqyosida tashkiliy ravishda o'tkazilishiga qaratilgandir.

Sharq xalqlari, jumladan, o'zbeklar orasida tarqalgan va bugungi kungacha yetib kelgan an'analar, bayramlar, rasm-rusumlar, odatlar, udumlarning har biri o'ziga xos odobnomadir. Chunki, ular boshdan-oyoq xalq pedagogikasi an'analari, xalq odobnomasi, ibratnomasi bilan yo'g'rilgan.

Avvalo, Navro'z mehnat, kasb-hunar, hamkorlik, do'st-birodarlik, o'rtoqlik, insoniylik, tantilik, bilimdonlik, zukkolik, topqirlik, yurtsevarlik, to'g'rilik, yaxshilik, halollik, adolat, mehmondo'stlik, mehr-oqibat, qadr-qimmat, tozalik, dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik madaniyati, hayvonlari, parrandalar, yer, suv, tabiatga munosabat, insonga muhabbat kabi umumbashariy qadriyatlar asosida qurilgan, ularni targ'ib-tashviq qilgan xalqona bayramdir. Boshqacha aytganda, mazkur bayramda xalq donishmandligiyu pedagogik an'analari, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, falsafiy, maishiy hayoti va dunyoqarashi, asrlar davomida to'plangan, qo'lga kiritgan tajribalari ko'z-ko'z qilinadi. Xalq o'yinlari, jismoniy tarbiyaga oid qarashlari, yutuq-tajribalari namoyon bo'ladi. Bular nimalarda, qanday an'analar, vositalar, metodlar, yo'llar orqali amalga oshirilgan?

O'zbek bolalar milliy o'yinlari: (ulardan bir qismi umumturkiy bolalar xalq o'yinlari bo'lib, butun Sharq shu jumladan, O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan) kurash, ot o'yini, yog'och o'yini, ko'pkari, poyga, uzoqqa tosh irg'itish, chillak zuvillatar, «zuv-zuv», sovunlangan xodaga chiqish, oshiq soqqa, bekinmachoq, quloq cho'zma, kaptarbozlik, qushbozlik, varrak, bo'ri-bo'ri, poshsho-vazir, qo'chqor urishtirish, xo'roz urishtirish, tuxum urishtirish, do'ppi otish, lanka, hakkalama-dukkalama, ariq qazidi, devor urdi, qush haydash, toychoq-toychoq, sochpopuk, to'y-to'y, kelin-kuyov, oqizoq-oqizoq, mehmon-mehmon, qo'zi qo'zi, arqon-arqon, sigir sog'di, juftmi-toq, loy-loy, parsildoq, oq terakmi-ko'k terak, bog'bon bog'bon, ko'chat ekdi, Yo ramazon, dehqon-dehqon, danak o'yini (juftmi toq), qovun-qovun, ovush, mol so'ydi, to'ptosh, kim oladi shuginaniyo, varrak, laylak-laylak, cho'p o'yin, qo'g'irchoq o'yin, yog'och ot o'yini, tuya-tuya, echki-echki, eshak mindi, dasta o'yin, qora qush, g'idi-g'idi, tars-turs, xalfana-xalfana... Ro'yxatni istagancha davom ettirish mumkin. Xullas, o'zbek xalq milliy bolalar o'yinlarining har biri bir olam, axloq-odob bobida, jismoniy chiniqish, kamolot sohasida ibratli vositalardandir. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, sport va jismoniy yetuklik bilan bog'liq o'yinlar sof o'yin holatida, ayni damda soz, so'z va raqs bilan birgalikda ijro etilgan.

Demak, Navro'z gul, shodlik, do'stlik, mehnat, shuningdek, yasharish, yangilanish, poklanish, tozarish, boychechak iforidek xushbuy, shaftoli gulidek go'zal bayramdir. Xalq tarixining bir tarkibiy qismi bo'lmish milliy urf-odatlar bayrami Navro'z hozirgi kunda ko'p millatli O'zbekiston xalqlari do'stligi mustaqilligini ta'minlash, Vatanning baxt, saodat, ravnaqi uchun xizmat qiladi.

*Dimoqqa yalpizlar nafasi urar,
Yurakda muattar chechaklar kular,
Bir suluv kelinchak salomga kelar –
Ostonaga bosh ur, aziz mehmonim!
Navro'zing muborak, O'zbekistonim!
Yana bahor keldi, yana olamda
Ajib bir go'zallik, ajib bir bayot,
Men seni qutlayman, shu ulug' damda,
Ulug' yelkadoshim, muzaffar hayot...
Qizg'aldoq bargidek uchar dildan g'am,
Toshqinlar kiradi qalbimga manim,
Bahoring muborak bo'lsin ushbu dam,
Mening O'zbekiston – dilbar Vatanim!*

Tuzuvchi : Z. Rajabova